

---

## Farg'onada "Besh tashabbus" olimpiadasi ikkinchi mavsumi shahar bosqichi g'oliblarini taqdirlash tadbiri bo'lib o'tdi

Bugun Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomidagi viloyat teatr-kontsert saroyida "Besh tashabbus" olimpiadasi ikkinchi mavsumi shahar bosqichi g'oliblarini taqdirlash tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, viloyat sektorlari rahbarlari ishtirok etdilar.

"Besh tashabbus" olimpiadasi ikkinchi mavsumi shahar bosqichi g'olibi va sovrindorlari bo'lgan 190 nafar yoshlar diplom va sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, Farg'ona shahrida yashovchi 150 nafar yoshga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish bo'yicha to'lov-kontrakt uchun, 50 nafar yoshga safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat to'lovi uchun, 178 nafar yigit-qizga zamonaviy "Kelajak kasblari"ga o'qitish uchun subsidiya ajratilgan sertifikatlar ham topshirildi.

Tadbir taniqli san'atkorlar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar bilan davom etdi.

2022-12-01 21:38:21